ILK O‘RTA ASRLARDA SUG‘DDA MONIYLIKNING TARQALISHI

Bozorov Javlon Ochil o‘g‘li
Mustaqil tadqiqodchi
+998 93 153 36 65

Buyuk ipak yo’li chorrahasida joylashgan Sug’d dinlar va madaniyatlar sintezi uchun qulay muhit bo’lgan edi. Shuning natijasi o’laroq buddaviylik, moniylik, xristianlik (nasroniylik) dinlari bir vaqtning o’zida mintaqada diniy bag’rikenglik tamoyillari asosida amalda bo’lgan. Tom ma’noda dinlar evolyusiyasi yuz berganligin ko’rishimiz mumkin.

Markaziy Osiyo turli din tarafdorlari tinch-totuv yashagan hudud hisoblanadi. Bu yerda turli dinlar qatori moniylik diniy qarashlari ham tarqalgan. Markaziy Osiyo turli hududlarida bu dinning tarqalish jarayonini o’rganish hozirgi davrda ham muhim muammodir. Moniylikni chuqur o’rganish uchun avvalambor uning kelib chiqishi va xususiyatlarini tahlil qilish, ilmiy nuqtai-nazardan o’rganish dolzarbdir.

Mesopotamiyalik Moniy milodning III asrida bu dinga asos solgan. Lekin uning tarjimai xoli va faoliyati to’g’risida unchalik ko’p ma’lumot mavjud emas. Olimlar Moniyni 216 yilda tug’ilgan, parfian urug’idan kelib chiqqan va yahudo-xristinlik muhitida tarbiyalangan, deb hisoblaydilar. Shuning uchun Moniyning Xristos, shuningdek Zardusht va Buddani o’zining muboshirlari (bobolari), deb bilganligi tasodif emas, keyinchalik payg’ambarlar ketma-ketligiga inson-Odamni ham qo’shib, o’zini ularning oxirgisi deb hisoblaydi.

Moniy o’z hayotining so’ngida favqulodda dadil qadam tashlab, Eron shohlarini o’z e’tiqodi tomon og’dirishga harakat qildi, ammo qaqshatqich mag’lubiyatga uchradi va 276 yoki 277 yillarda zindonda vafot etdi. Moniy o’zidan keyin oromiy tilida yozilgan bir qancha asarlar va iyerarxik (bosqichli) tuzilmaga ega bo’lgan aniq uyushmani qoldirdi.

Jumladan, Moniy qarashlari to’g’risida arab-fors tarixchilaridan Tabariy, Bal’amiy, Firdavsiy, Gardiziy, Ibn al-Asir va “Hudud-ul-olam” asarining muallifi ma’lumotlar keltiradilar. Jumladan manbalarda keltirilishicha, moniylik diniy-falsafiy oqimi milodiy III asrda vujudga kelgan bo’lib, Moniyning o’zi va uning safdoshlari iqtidorli rassom bo’lganlar[1]. Yuqorida ta’kidlanganidek, A.M. Beleniskiy va B.I. Marshak Panjikent hamda Ustrushona markazi bo’lgan Bundijikat devoriy suratlarini chizgan rassomlarni Moniyning izdoshlari bo’lganliklarini taxmin qilganlar.

Dinning geografiyasi uning gullab-yashnagan cho’qqisi nihoyatda kengbo’lib, bu din Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo, Hindiston, Xitoyda ommalashgan edi. Shu bilan birga u Xitoyning janubiy-sharqida hozirgi vaqtgacha ba’zi sektalar ko’rinishida mavjuddir. Uyg’urlarning hukmdori Bilga-Xoqon moniylikni qabul qilgan va bu rasmiy din sifatida imperiyaning ba’zi joylarida XI asrning boshigacha saqlanib qolgan.

Sharqshunos V.B. Xenning fikricha, moniylikni Markaziy Osiyoga tarqatuvchilar asosan sug’dliklar bo’lgan. Bu qaysidir darajada VIII asrning birinchi yarmida moniylar rahnamosining

[1] Беленицкий А.М. Вопросы идеологий и культов Согда (по материалам пянджикентских храмов) //Живопись древнего Пенджикента. – М.: 1954. – С. 39-52.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

Samarqandga kelishi va bu yerda qarorgohini qurishi bilan tasdiqlanadi[2]. Jumladan, Samarqandda moniylarning jamiyati yoki monastri bo'lganligi to'g'risida "Hudud-al- Olam" asarida ma'lum qilinadi.

IV asrda Sug'dda dastlabki moniy ibodatxonalari-monastirlari paydo bo'lgan[3]. VIII asrning birinchi yarmida Xitoy imperatorining qonun kuchigaega bo'lgan bir qarori (dekret) da Moniy ta'limoti "g'arbiy xu mahalliy dini" deb atalgan. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, bunda umuman Markaziy Osiyoning aholisi emas, balki aynan sug'dliklar nazarda tutilgan.

Somoniylar davri yozma manbalaridan ma'lumki, Samarqanddagi Devori-Qiyomat devorining sakkiz darvozasi bor edi. Ulardan biri Izbask deb nomlangan bo'lib, bular orqali yo'l Isbiskat qishlog'iga olib borgan. Buqishloq Samarqanddan ikki farsax uzoqlikda joylashgan va u qo'hna shahar Do'rmontepa bilan lokalizasiya qilinadi. O'rta asr geograflari Ibn Xavqal, al-Istahriy va al-Muqaddasi asarlarini tahlil qilgan P.B. Lurye Samarqanddagi moniylik markazi Isbask-Isbiskatda joylashgan bo'lishimumkin, degan xulosaga keladi.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy ham o'z davrida moniylik tarixi va diniy qarashlari bilan qiziqqan. Ushbu dinning Markaziy Osiyodagi taqdiri to'g'risida Beruniy bergan ma'lumotlar ham muhim sanaladi. Bu borada Beruniyga zardushtiylikning ruhoniylari bergan ma'lumotlar alohida ahamiyatga ega bo'lgan, chunki Beruniy o'qiganlari bilan birgalikda eshitganlarini ham yozib borgan.

Beruniy Moniyning "Shopurkon" asariga tayangan holda quyidagi ma'lumotni keltiradi: "Moniy Bobil taqvimining 527 yilida (milodiy 216 yil) tug'ilgan bo'lib, 30 yoshida unga o'z diniy qarashlari nogahoniy ma'lum bo'lgan". Bundan tashqari Beruniy xristianlik dini vakili bo'lgan Yahyo ibn an-No'monning bergan ma'lumoti asosida Moniyning xristiancha ismi Korbikos va uning otasi ismi Fatak bo'lganligini yozib qoldirgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Moniy zardushtiylik, xristianlik, buddaviylik dinlaridan yaxshi xabardor bo'lgan. U zardushtiylik va xristianlik dinlari bilan Markaziy Osiyo va Eronda bo'lganida tanishgan bo'lsa, Hindistonga safari davomida buddaviylik diniy aqidalarini o'rgangan. Beruniyning yozishicha, Shopur I davrida Moniy mamlakatda katta mavqyega ega bo'lgan. Lekin taxtga Baxrom ibn Hurmo'zd o'tirgach vaziyat o'zgarib, Moniy qatl ettiriladi va uning tarafdorlari mamlakatdan quviladi .

Moniylikning Sug'd va undan tashqarida tarqalishi borasida boshqa manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga nisbatan Beruniy ma'lumotlari ishonarli hisoblandi. Ammo Beruniyning Moniy to'g'risida ma'lumotlari bir necha parchalardan iboratdir. Agar bu borada Firdavsiy ma'lumotlariga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, ular ko'proq afsonaviy mazmunga ega.

O'zbek-fransuz ekspedisiyasi tomonidan 2002 yilda Samarqand shahrining shimoliy qismida VII-VIII asr oxirida yashagan shahar aslzodalarining turar-joy majmuasi ochilgan. Uning hamma uylarining devorlari, pollari, ostonalari va hatto shiftlari ganch bilan suvalgan edi

Yozuv Moniy tomonidan joriy etilgan bo'lib, uning nomi bilan "Moniy yozuvi", deb yuritilgan. Sug'diylar oromiy yozuvining uch xil turi (xususiy sug'diy, moniy va suryoniy) dan foydalanganlar. Yozuvlarning moniy va suryoniy shakli diniy matnlar uchun, "xususiy sug'd yozuvi" esa buddaviylik matnlari va devon hujjatlarini rasmiylashtirishda keng qo'llanilgan. Bu yozuvning sug'diy manzilgohlar orqali turkiy xalqlar orasida yoyilishi natijasida VIII-IX asrlarga kelib uyg'ur yozuvi shakllangan.

[2] Литвинский Б.А., Зеймаль Т.И. Аджина-тепа. Москва, 1971.-С.121.

[3] Лившиц В.А., Хромов А.Л. Согдийский язык / Основы иранского языкознание. Среднеиранские языки. – М: Наука, 1981. – С. 347-500.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

Shunga ko'ra, sug'd tilidagi manbalar uch xil yozuv orqali bizgacha yetib kelgan[4]. Sug'diy-moniy yozuvi orqali ham bir qator ma'lumotlar saqlangan.

Bir necha yillar davomida moniy ta'limotining sug'diy qo'lyozmalari vujudga keldi. VII asrda Sharqqa qarab yoyilgan moniylik ta'limoti cherkovining rasmiy tili sug'diy bo'lib, asosiy diniy o'gitlar, qarashlar va asarlar shu tilga tarjima qilingan. Moniy ta'limotida tasviriy san'atga alohida e'tibor berilgan va dastlabki diniy mazmundagi kitoblarda Moniy talqinidagi syujetlar aks ettirilgan. Buning ta'sirini hatto Afrosiyob, Varaxsha, Panjikent tasviriy san'ati namunalari va o'rta asrlar davri Markaziy Osiyo minatyura san'atida ham kuzatish mumkin.

A.M. Beleniskiyning ma'lumotlariga ko'ra, moniylikning dinavoriy (dēnāwarih) mazhabi markazi Sug'd bo'lib, tadqiqotchi bunga yanada aniqlik kiritib, uni Samarqand bo'lganligini ta'kidlaydi.

Moniy tomonidan yaratilgan asarlardan 10 tasi bizgacha yetib kelgan. Uning izdoshlari tomonidan esa ko'plab falsafiy, axloqiy, diniy mavzudagi asarlar yaratilgan. Moniylik turkiy adabiyot rivojiga ta'sir ko'rsatgan dinlardan biridir. Bu oqimning ta'sirida turkiy adabiyotda "Xuastuanift" ("Moniylar tavbanomasi") (38.) asari yaratilgan. Uning qadimgi turkiy tildagi uchta nusxasi ma'lum. Bu asarning London va Berlin nusxasi moniy, Sankt-Peterburg nusxasi esa eski uyg'ur yozuvida bitilgan. V.V. Radlov fikricha, asarning yaratilish davri taxminan V asr, S.Ye. Malov xulosasiga ko'ra, VII asrga to'g'ri keladi. O'zbek olimlaridan professor N.I. Rahmonov tadqiqotlarida "Xuastuanift" g'oyasi, tuzilishi, ahamiyati keng o'rganilgan[5]. Asar moniy jamoasi a'zolarining madhiyasi, ayni paytda nizomi ham hisoblanadi. "Xuastuanift" 15 bo'limdan iborat. Kitobning ikkinchi bo'limida Kun va Oy tangrilarning moniylikdagi vazifalari ko'rsatiladi hamda ularning haqiqiyligini tan olishga da'vat etadi. S.Ye. Malovning "Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar" nomli asarida ham moniylarning tangriga tavba-tazarrulari bitilgan ibodatlaridan parchalar keltirilgan.

Xususan, uyg'ur yozuvidagi tavbanoma -"Xuastuanift" asari nafaqat diniy-falsafiy balki, moniy adabiyotining o'ziga xos yodgorligi ham hisoblanadi.

Bu borada V.V. Bartoldning fikrlariga jiddiy e'tibor berish kerak bo'ladi. Uning fikricha, Markaziy Osiyo aholisi islom dinini qabul qilgach,moniylar shia va ismoiliya mazhablariga ta'sir etgan.

Beruniyning ma'lumotlariga ko'ra, Moniy o'zining Injil kitobini yaratgan bo'lib, u xristianlar Injilidan katta farq qilgan. Bu kitob 22 bobdan iborat bo'lgan.

Markaziy Osiyoda moniylik diniy qarashlarining dastlabki targ'ibotchilari kuniga yetti marta ibodat (namoz) qilganlar, keyingilar esa bu ibodatni to'rt martaga tushirganlar. Yillar o'tgani sayin diniy marosimlar ham aholining turmushiga moslangan.

Moniy jamoalarining guruhlarga bo'linganligi ma'lum. Ba'zilari besh, uch, hatto ikki guruhga bo'linadilar. Dinlar tarixidan ma'lumki, har bir diniy qarash tarafdorlari, o'zlarining ijtimoiy kelib chiqishi yoki g'oyaviy yakdilliklari bilan ajralib turishga harakat qilgan. Aftidan, moniylik tarafdorlari orasida ham ana shunday asosda guruhlarga bo'linish sodir bo'lgan. Moniy hayot bo'lgan davridayoq uning tarafdorlari Erondan qochib, Markaziy Osiyoning yirik shaharlariga, jumladan, Samarqandga kelib joylashganlar.

Sug'dda moniylik diniy qarashlari to'g'risida Abu Rayhon Beruniy Moniy vafotidan keyin uning qarashlarini targ'ib qiluvchilar turli hududlarga yoyilib ketganligi. Islom dini hukmron bo'lgan shaharlardan faqatgina Samarqandda o'zlarini "sabiy" lar deb ataydigan Moniy tarafdorlari o'z jamoalarini tuzganligini aytib o'tgan. Moniylik dinining tarqalishi, geografik chegarasi Beruniyning

[4] Исҳоқов М. Уч алфавитли ёзув // Фан ва турмуш. – Тошкент: 1983. – №3. – Б. 18-19.

[5] Рахмонов Н. Битиглар оламида. Тошкент, 1990.- Б. 68

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

“Ma’sud qonunlari” asarida keltiriladi. Afrosiyob va Panjikent devoriy suratlaridagi lavhalar va tarixiy manbalarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, Samarqanddagi moniy jamoalari vakillarining aksariyati rassom bo’lgan.

Qalqon ularga uzoq Sharqiy Turkiston (Sinszyan) dagi budda ibodatxonasining tasviriy suratlarini eslatdi. Bu yerda ham xuddi ana shunday tasvirlar aks ettirilgan. Suratda ham, otliqning harbiy ko’rinishida ham o’xshashlik bor. Bu esa V asrdayoq moniylik rassomlarining Sug’d va Xitoy o’rtasidagi madaniy aloqalarning vositachilari bo’lganidan dalolat beradi[6]. Moniylik rassomlari suratlari natijasida qadimgi madaniyatlar o’rtasida almashinuv yuz berganligi yuqorida keltirilgan birgina asos orqali o’z isbotini topgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, milodiy III asrda Eronda vujudga kelgan moniylikdagi diniy-falsafiy qarashlar IVasrga kelib MarkaziyOsiyo, aniqrog’i Sug’dning markazi bo’lgan Samarqand orqali Xitoy, Hindiston kabi mamlakatlarga tarqalgan. Bu jarayon nafaqat diniy qarashlar, balki san’at va madaniyatning bir qancha turlarida o’z aksini topdi va moniylar chizgan tasviriy san’at namunalari hozirgi kunga qadar tarixni o’rganishda muhim manba bo’lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Беленицкий А.М. Вопросы идеологий и культов Согда (по материалам пянджикентских храмов) //Живопись древнего Пенджикента. – М.: 1954. – С. 39-52.
2. Литвинский Б.А., Зеймаль Т.И. Аджина-тепа. Москва, 1971.-С.121.
3. Лившиц В.А., Хромов А.Л. Согдийский язык / Основы иранского языкознание. Среднеиранские языки. – М: Наука, 1981. – С. 347-500.
4. Исҳоқов М. Уч алфавитли ёзув // Фан ва турмуш. – Тошкент: 1983. – №3. – Б. 18-19.
5. Рахмонов Н. Битиглар оламида. Тошкент, 1990.- Б. 68
6. Ғойибов Б. Суғд конфедерациясида Панчнинг ўрни (илк ўрта асрлар). // Монография.-Тошкент: Наврўз, 2012.-Б.140.

[6]Ғойибов Б. Суғд конфедерациясида Панчнинг ўрни (илк ўрта асрлар). // Монография.-Тошкент: Наврўз, 2012.-Б.140.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.